Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta‘lim muassasalarining “Kadastr” bakalavriat yo‘nalishlariga suhbat asosida o‘qishga qabul qilish bo‘yicha savollar bazasi

I. Mamlakatda o‘z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish bo‘yicha savollar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O‘zbekiston – 2030" strategiyasi PF-158-son farmonida yer-mulk munosabatlari va kadastr tizimini rivojlantirish bo‘yicha qanday vazifalar belgilangan?
2. Respublikada yagona raqamli kadastr tizimini shakllantirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlarning mohiyati nimada?
3. "Elektron davlat kadastri" axborot tizimini joriy etishning maqsad va vazifalari.
4. Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tizimini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan islohotlar.
5. Kadastr xizmatlari ko‘rsatishda "bir oyna" tamoyilini joriy etish bo‘yicha islohotlar mohiyati.
6. O‘zbekiston Respublikasining "Davlat kadastrlari to‘g‘risida"gi qonunining asosiy maqsad va vazifalari.
7. Yer-mulk munosabatlarini isloh qilishda kadastr xizmatining o‘rni qanday?
8. Ko‘chmas mulk kadastri va yer kadastrini yagona axborot tizimiga integratsiyalashning ahamiyati.
9. Kadastr baholash tizimini bozor tamoyillariga moslashtirish bo‘yicha qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
10. Kadastr xizmati ko‘rsatishda davlat boji va to‘lovlar tizimini soddalashtirish bo‘yicha islohotlar.
11. Yer-mulk munosabatlari sohasida raqamli xizmatlarni "Elektron hukumat" tizimiga integratsiyalash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar.
12. Kadastr registrini yuritishda blokcheyn texnologiyasini joriy etish istiqbollari.
13. Mobil ilovalar orqali kadastr ma‘lumotlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha ishlar.
14. Kadastr xizmatida davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar.
15. Yer solig'i va kadastr bahosini bir-biriga bog‘lash bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar.
16. Kadastr ob‘yektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish muddatlarini qisqartirish bo‘yicha islohotlar.

17. Ko‘chmas mulk kadastrini notarial va bank tizimlari bilan bog‘lashning huquqiy-texnik asoslari.
18. Milliy fazoviy ma‘lumotlar infratuzilmasini shakllantirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar.
19. Kadastr xizmati ko‘rsatishda inson omilini kamaytirish va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar.
20. Respublikada geoportal va ochiq fazoviy ma‘lumotlar tizimlarini rivojlantirishning ahamiyati.
21. Yer maydonlarini raqamlashtirish va ularni yagona axborot bazasiga kiritish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar.
22. Qishloq xo‘jaligi yerlari monitoringi va bonitirovkasi tizimini takomillashtirish bo‘yicha qanday chora-tadbirlar ko‘rilmoqda?
23. Fermer va dehqon xo‘jaliklariga yer ajratish tartibini soddalashtirish bo‘yicha olib borilgan ishlar.
24. Xorijiy investorlarga yer resurslaridan foydalanish huquqini berish tartibidagi o‘zgarishlar.
25. O‘rmon va suv fondi yerlari kadastrini yuritishning o‘ziga xos xususiyatlari.
26. Shaharlarni bosh rejalashtirish jarayonida kadastr ma‘lumotlaridan foydalanishning ahamiyati.
27. Kadastr sohasida kadrlar tayyorlash tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha ishlar.
28. Yer-mulk munosabatlarini isloh qilishda ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish tamoyillarining o‘rni.
29. Yer kadastri va ko‘chmas mulk kadastri ma‘lumotlarini xalqaro tizimlar bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha ishlar.
30. Kadastr xizmatlari ko‘rsatishda raqobatbardosh xizmatlar bozorini shakllantirish bo‘yicha davlat siyosati.
31. Kadastr faoliyati sohasida davlat nazorati va monitoring tizimini takomillashtirish.
32. Kadastr sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlari.
33. Insonsiz uchar apparatlar (dron)dan kadastr ishlarida foydalanishni tartibga solish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlar.
34. Chegara osti hududlarni kadastr jihatdan ta‘minlashda olib borilayotgan islohotlar.

35. Yerdan norasional foydalanish holatlarini aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha davlat siyosati.
36. Qurilish va shaharsozlikda kadastr ta‘minotini takomillashtirish bo‘yicha islohotlar mazmuni.
37. Foydali qazilmalar konlari va yer osti resurslari kadastrini yuritish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar.
38. Suv resurslari va irrigatsiya inshootlari kadastrini yuritishda zamonaviy yondashuvlarning tatbiq etilishi.
39. Yer-suv fondi hisobini yuritishda zamonaviy geoinformatsion tizimlarning tatbiq etilishi.
40. Kadastr xizmati ko‘rsatishda "yagona interaktiv davlat xizmatlari portali" imkoniyatlaridan foydalanish.
41. Ko‘chmas mulk bozorini rivojlantirishda kadastr ma‘lumotlarining shaffofligini ta‘minlash bo‘yicha ishlar.
42. Yer resurslaridan foydalanishda raqamli transformatsiyaning milliy dasturlardagi o‘rni.
43. Kadastr xodimlarining kasbiy malakasini oshirish bo‘yicha davlat siyosati.
44. Yer-mulk nizolarini sudgacha (mediatsiya) tartibda hal etish tizimini rivojlantirish bo‘yicha ishlar.
45. Kadastr ma‘lumotlarini statistik va tahliliy maqsadlarda ochiq foydalanishga taqdim etish bo‘yicha ishlar.
46. Respublikada raqamli topografik xaritalashni zamonaviylashtirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar (kadastr xaritalari uchun asos sifatida).
47. Yer resurslarini boshqarishda raqamli ikki egizak (digital twin) texnologiyasini joriy etish istiqbollari.
48. Kadastr sohasida davlat xizmatlarini "proaktiv" tarzda ko‘rsatish tamoyilini joriy etish.
49. Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni sug‘urtalash tizimini kadastr ma‘lumotlari bilan bog‘lash istiqbollari.
50. Kadastr sohasidagi me‘yoriy-huquqiy bazani xalqaro tajriba asosida takomillashtirish yo‘nalishlari.

II. Bakalavriat ta‘lim yo‘nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko‘rsatish) bo‘yicha savollar.

1. Zamonaviy kadastr mutaxassisi portretini qanday tasavvur qilasiz?

2. Kadastr mutaxassisining jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati nimada?
3. Nima uchun aynan kadastr yo‘nalishini tanladingiz?
4. Kadastr mutaxassisi kasbining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati haqida fikringiz.
5. Kadastr mutaxassisiga qo‘yiladigan zamonaviy malaka talablari.
6. Kadastr sohasi mutaxassisining kasbiy etikasi va mas‘uliyati.
7. Kadastr injeneri (mutaxassisi)ning lavozim vazifalari.
8. Kadastr mutaxassisining raqamli savodxonlik darajasiga qo‘yiladigan talablar.
9. Ushbu sohadagi ish stajingiz davomida to‘plagan tajribangiz bakalavriat ta‘limini davom ettirishga qanday turtki berdi?
10. Amaliy faoliyatingizda duch kelgan qaysi muammolar sizni nazariy bilimlaringizni chuqurlashtirishga undadi?
11. Kadastr sohasidagi taniqli mutaxassislarning ushbu soha rivojiga qo‘shgan hissasi haqida nima bilasiz?
12. Zamonaviy kadastr mutaxassisi qanday kasbiy va shaxsiy fazilatlarga ega bo‘lishi lozim?
13. Kadastr sohasidagi texnologiyalarning boshqa sohalar (yer tuzish, shaharsozlik, bank tizimi) bilan integratsiyasi haqida fikringiz.
14. Kasbiy faoliyatingizda innovatsion yondashuv va texnologiyalardan xabardor bo‘lishning ahamiyati.
15. Kadastr mutaxassisining jamoada ishlash va hujjatlashtirish jarayonlarini tashkil etish qobiliyati.
16. Mutaxassis sifatida o‘z malakangizni doimiy oshirib borishning zarurligini qanday tushunasiz?
17. Kadastr sohasidagi kasbiy faoliyat jamiyat va davlat manfaatlariga qanday xizmat qiladi?
18. Kadastr sohasida ishlash davomida o‘zingizda shakllangan kasbiy ko‘nikmalar haqida gapirib bering.
19. Mutaxassis sifatida fuqarolar va tashkilotlar bilan ishlashda qanday muomala madaniyatiga amal qilasiz?
20. Kadastr hujjatlarini rasmiylashtirishda aniqlik va mas‘uliyatning ahamiyati nimada?
21. Kadastr xizmati mutaxassisining fuqarolar oldidagi mas‘uliyati qanday namoyon bo‘ladi?
22. Kadastr mutaxassisi kelajakda qanday yo‘nalishlarda o‘z salohiyatini namoyon eta oladi, deb hisoblaysiz?

23. Sohangizda xorijiy tajribani o‘rganish va tatbiq etishga bo‘lgan qiziqishingiz haqida gapirib bering.
24. Kadastr sohasi rivojida yoshlarning ishtiroki qanday ahamiyat kasb etadi?
25. Kasbiy faoliyatingizda "aniqlik", "mas‘uliyat" va "halollik" tushunchalari qanday o‘rin tutadi?
26. Kadastr ishlarini olib borishda huquqiy bilimlarning ahamiyati.
27. Kelajakda ushbu yo‘nalishda qanday mutaxassis bo‘lishni istaysiz va nima uchun?
28. Kadastr sohasidagi kasbiy faoliyatingiz davomida erishgan yutuqlaringiz haqida gapirib bering.
29. Ushbu bakalavriat ta‘lim yo‘nalishini tamomlagach, kasbiy faoliyatingizni qanday yo‘nalishda davom ettirishni rejalashtiryapsiz?
30. Kadastr mutaxassisi sifatida jamiyatga qanday hissa qo‘shishni istaysiz?
31. Kasbiy faoliyatingiz davomida hamkasblaringiz orasida qanday obro‘-e’tibor qozondingiz?
32. Kadastr kasbini tanlashda oilaviy yoki ijtimoiy muhitning ta‘siri bo‘lganmi?
33. Kasbiy mahoratingizni oshirish uchun qanday kurslar yoki treninglarda ishtirok etgansiz?
34. Yosh mutaxassislarga ushbu sohani tanlashni tavsiya qilasizmi? Nima uchun?
35. Kadastr sohasidagi ish faoliyatingiz sizga qanday hayotiy tajriba berdi?
36. Kasbiy faoliyatingizda uchragan eng qiziqarli loyiha haqida gapirib bering.
37. Sohangizda ishlash davomida qanday yangi bilim va ko‘nikmalarni egallashga muvaffaq bo‘ldingiz?
38. Kadastr sohasi kelajakda qanday yo‘nalishlarda rivojlanadi, deb hisoblaysiz?
39. Kasbiy faoliyat va shaxsiy hayot o‘rtasida muvozanatni qanday saqlaysiz?
40. Ishingizda duch kelgan mijozlar yoki fuqarolar bilan ishlash tajribangiz haqida gapirib bering.
41. Sizningcha, kadastr mutaxassisining eng muhim fazilati nima?
42. Kasbiy faoliyatingiz davomida qanday mukofot yoki e’tirofga sazovor bo‘ldingiz?
43. Bakalavriat ta‘limini olish sizga kasbiy martaba rivojida qanday imkoniyatlar ochadi, deb o‘ylaysiz?
44. Ilmiy-amaliy konferensiya yoki seminarlarda ishtirok etgan bo‘lsangiz, ular haqida gapirib bering.
45. Kadastr sohasidagi zamonaviy nashrlar yoki adabiyotlarni kuzatib borasizmi?

46. Kasbiy hamjamiyat (assotsiatsiya, uyushma) faoliyatida ishtirok etganmisiz?

47. Sizningcha, kadastr mutaxassisi kasbi jamiyatda yetarlicha qadrlanmoqdami?

48. Kasbiy faoliyatingizda ustozlaringiz yoki murabbiylaringiz kim bo‘lgan va ulardan nimalarni o‘rgangansiz?

49. Yoshlar orasida ushbu yo‘nalishga qiziqishni oshirish bo‘yicha qanday takliflaringiz bor?

50. Ushbu bakalavriat ta‘lim yo‘nalishini muvaffaqiyatli tamomlagach, o‘zingizni qanday mutaxassis sifatida ko‘rasiz?

III. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o‘qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas‘uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o‘z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlarini aniqlash bo‘yicha savollar.

1. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish mezonlarini bilasizmi?

2. Mantiqiy fikrlashning rivojlanganlik darajasini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlar.

3. Muammoli vaziyatni tahlil qilish va yechim topish qobiliyatingizga oid misol keltiring.

4. Kadastr hujjatlarini rasmiylashtirishda kutilmagan vaziyat yuzaga kelganda qanday qaror qabul qilasiz?

5. Rezyume nima va u nima uchun kerak?

6. Ma’lumotnoma (obyektivka) nima va u qanday holatlarda talab qilinadi?

7. To‘g‘ri rezyume tuzishda qanday jihatlarga e’tibor qaratish zarur?

8. Maqsadni to‘g‘ri shakllantirishning zaruriy talablari nimalarda namoyon bo‘ladi?

9. Kreativlik nima va uning kadastr mutaxassisi faoliyatidagi ahamiyati?

10. Shaxsiy va kasbiy rivojlanishni rejalashtirish maqsadi va mohiyati.

11. Vaqtni boshqarish ko‘nikmasi kadastr hujjatlarini o‘z vaqtida rasmiylashtirishda qanday ahamiyat kasb etadi?

12. Jamoada ishlashda intizom va hamjihatlikning ahamiyati nimada?

13. Kadastr bo‘limi jamoasida yetakchilik sifatlari qanday namoyon bo‘lishi kerak?

14. Qaror qabul qilishda mustaqillik darajangizni qanday baholaysiz?

15. Kasbiy faoliyatingizda duch kelgan qiyinchiliklarni qanday yengib o‘tdingiz?

16. Mas‘uliyatlilik va intizomlilik kasbiy faoliyatda qanday namoyon bo‘lishi lozim?
17. Ishonchli va aniq ma‘lumot taqdim etishning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati.
18. Kadastr hujjatlarida xato yoki nomuvofiqlikka duch kelganingizda qanday harakat qilasiz?
19. Jamoada ishlashda kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nizolarni qanday hal etasiz?
20. O‘z ustingizda ishlash va kasbiy mahoratni oshirish bo‘yicha rejalaringiz.
21. Vaqt taqchilligi sharoitida ishlarni ustuvorlik bo‘yicha taqsimlash tamoyillari.
22. Shaxsiy kunlik ish rejangizni tuzishda qanday tamoyillarga amal qilasiz?
23. Yangi dasturiy ta‘minot yoki texnologiyani o‘rganishga qanday yondashasiz?
24. Kasbiy faoliyatda yuzaga keladigan keskin vaziyatlarni qanday boshqarasiz?
25. Ish faoliyatingizda erishgan eng muhim yutug‘ingiz haqida gapirib bering.
26. Xato yoki kamchilikka yo‘l qo‘yilganda uni tan olish va tuzatishga tayyormisiz?
27. Rahbariyat yoki hamkasblar bilan ishonchli munosabat o‘rnatishda qanday tamoyillarga amal qilasiz?
28. Sizningcha, kadastr mutaxassisi kasbi oson kasbmi yoki qiyin kasb? Javobingizni izohlab bering.
29. Kasbiy faoliyatingizda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalaringiz qanday darajada?
30. Bakalavriat ta‘limini davom ettirish orqali kasbiy faoliyatingizga qanday yangi qiymat qo‘shishni rejalashtiryapsiz?
31. Yetakchilik va boshqaruvchanlik qobiliyatingizni qanday baholaysiz?
32. Jamoada ishlashda o‘zingizga xos rolni qanday aniqlaysiz?
33. Muzokara olib borish ko‘nikmalaringiz haqida gapirib bering.
34. Kasbiy faoliyatda to‘plangan tajribangizni yangi hamkasblarga qanday o‘rgatasiz?
35. Ishonch va sirni saqlash kasbiy faoliyatingizda qanday ahamiyat kasb etadi?
36. Kasbiy faoliyatingizda intizomga rioya qilmaslik holatlariga qanday munosabatdasiz?
37. O‘z xatti-harakatlaringiz va qarorlaringiz uchun javobgarlikni qanday his qilasiz?
38. Ishda yuzaga kelgan to‘siqlarni bartaraf etishda qanday strategiyalardan foydalanasiz?

39. Kasbiy faoliyatingizda bir vaqtda bir nechta vazifani bajarish ko‘nikmangiz qanday?
40. Stressli vaziyatlarda hissiy barqarorlikni saqlash bo‘yicha qanday usullardan foydalanasiz?
41. Kasbiy faoliyatingizda tanqidiy fikrlash qanday namoyon bo‘ladi?
42. Yangi bilim olishga bo‘lgan ichki motivatsiyangiz haqida gapirib bering.
43. O‘z faoliyatingizni tahlil qilish (o‘z-o‘zini baholash) ko‘nikmangiz qanday shakllangan?
44. Kasbiy faoliyatingizda vaqtida qaror qabul qila olish qobiliyatingizga misol keltiring.
45. Jamoaviy ish natijalariga shaxsiy hissangizni qanday baholaysiz?
46. Kasbiy faoliyatda axloqiy va odob-axloq normalariga rioya qilish qanchalik muhim?
47. O‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyatingiz haqida gapirib bering.
48. Kasbiy faoliyatingizda innovatsion g‘oyalarni ilgari surganmisiz? Misol keltiring.
49. Rahbarlik lavozimiga ko‘tarilsangiz, jamoani qanday boshqarishni rejalashtirasiz?
50. Kasbiy va shaxsiy rivojlanish bo‘yicha keyingi besh yillik rejalaringiz qanday?

IV. Tanlangan bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko‘nikmalarning mavjudligini aniqlash bo‘yicha savollar.

1. Kadastr fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.
2. Davlat kadastrlari tizimi va uning turlari (yer, ko‘chmas mulk, o‘rmon, suv va boshqalar).
3. Yer kadastri tushunchasi, uning maqsad va vazifalari.
4. Ko‘chmas mulk kadastri tushunchasi va uning tarkibi.
5. Kadastr ob‘yekti va kadastr sub‘yekti tushunchalari.
6. Yer uchastkalarini kadastr ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi.
7. Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi.
8. Kadastr xaritalari va planlarini tuzish tamoyillari.
9. Yer uchastkalari chegaralarini belgilash (mejevaniye) usullari.
10. Kadastr nomeri (raqami) tizimi va uning shakllanish tartibi.
11. Yer bonitirovkasi tushunchasi va uni o‘tkazish usullari.

12. Yer va ko‘chmas mulkni baholashning kadastr usullari.
13. Bozor qiymati va kadastr qiymati tushunchalarining o‘zaro farqi.
14. Yer monitoringi tushunchasi va uni yuritish tartibi.
15. Yer tuzish loyihalarini ishlab chiqish bosqichlari.
16. Kadastr inventarizatsiyasi tushunchasi va uni o‘tkazish tartibi.
17. Geografik axborot tizimlari (GAT)ning kadastr ishlarida qo‘llanilishi.
18. Raqamli kadastr xaritalarini yuritishning texnik-texnologik asoslari.
19. Yer resurslarini boshqarishning tashkiliy-huquqiy asoslari.
20. O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi asosiy qoidalari.
21. O‘zbekiston Respublikasining "Davlat kadastrlari to‘g‘risida"gi qonuni asosiy tushunchalari.
22. Yer uchastkalarini davlat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartibi.
23. Yer-mulk nizolarini hal etishning huquqiy asoslari.
24. Qishloq xo‘jaligi yerlarining hisobini yuritish tartibi.
25. Sug‘oriladigan va sug‘orilmaydigan yerlarning kadastr hisobi.
26. Shahar yerlari kadastrining o‘ziga xos xususiyatlari.
27. O‘rmon fondi yerlari kadastrini yuritish tartibi.
28. Suv fondi yerlari kadastrini yuritish tartibi.
29. Sanoat, transport, aloqa va boshqa maxsus tayinlanishdagi yerlar kadastri.
30. Ko‘chmas mulk ob‘yektlarini texnik inventarizatsiyadan o‘tkazish tartibi.
31. Bino va inshootlarning texnik pasporti tushunchasi va uning tarkibi.
32. Yer uchastkalarining maydonini analitik va grafik usullarda hisoblash.
33. Kadastr axborot tizimlarida ma‘lumotlarni yangilash va yuritish tartibi.
34. Yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlar turlari.
35. Kadastr xizmatlari ko‘rsatishda davlat boji va yig‘imlarni hisoblash tartibi.
36. Yer uchastkalarini birlashtirish va bo‘lish (mejevaniye) jarayonining huquqiy-texnik asoslari.
37. Kadastr dala kitobi va uning yuritilish tartibi.
38. Fotogrammetriya va masofadan zondlash ma‘lumotlaridan kadastr ishlarida foydalanish.
39. GNSS texnologiyalarining kadastr o‘lchash ishlaridagi qo‘llanilishi.
40. Kadastr xaritalarini davlat topografik xaritalari bilan bog‘lash tamoyillari.

41. Koordinata tizimlari va proyeksiyalar: Gauss-Kryuger proyeksiyasining kadastr ishlaridagi ahamiyati.
42. Yer solig'ini hisoblashda kadastr ma‘lumotlaridan foydalanish tartibi.
43. Ko‘chmas mulk bitimlarini (oldi-sotdi, ijaraga berish) rasmiylashtirishda kadastr xizmatining ishtiroki.
44. Kadastr registrini yagona davlat reyestri bilan bog‘lash tamoyillari.
45. Yer-mulk munosabatlarida notarial idoralar bilan hamkorlik tartibi.
46. Kadastr xatolarini aniqlash va ularni tuzatish tartibi.
47. Kadastr ma‘lumotlarining maxfiyligi va ulardan foydalanish tartibi.
48. Yer resurslarini boshqarishda geoinformatsion modellashtirishning ahamiyati.
49. Kadastr sohasida davlat nazorati va monitoringni amalga oshirish tartibi.
50. Kadastr xizmati faoliyatida elektron hujjat aylanishi tizimining ahamiyati.

Kafedra mudiri **V.Otaqo‘ziyeva**